

## FUQARO YIG'INLARINING IJTIMOYIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MARIFIY JIHATDAN YUKSALISHI

Ismoilov Temurbek Islomovich

Namangan State University, National idea  
and the Department of Law Education, etc. professor

Ibrahimov Ahror Mashrabjan Son,

Methodology of teaching social humanities  
Master's student of (Foundations of Spirituality).

### Annotation

Ushbu maqolada inson yig'ining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-marifiy yo'nalishlarida yuksalishning ahamiyati haqida so'z boradi. ijtimoiy-siyosiy o'lchovning yuksalishi shaxslarning siyosiy ongi va jamiyatda o'zgarishlar yaratish salohiyatini oshirish orqali demokratik jarayonlardagi ishtirokini ta'kidlaydi. qolaversa, ma'naviy-marifiy o'lchovning yuksalishi kishilarda ma'naviy qadriyatlarga sadoqat va insoniyat bilan munosabatda mas'uliyat hissini oshirish orqali ko'proq axloqiy xulq-atvorni namoyon etish imkonini beradi. maqolada, shuningdek, fuqaro yig'ishlarining bu ikki jihati bir-birini qanday to'ldirishi ta'kidlangan. ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot jamiyatning adolatli tuzilishga erishishiga yordam bersa, ma'naviy-marifiy taraqqiyot shaxsning mazmunli hayot kechirishiga xizmat qiladi. shaxslarning ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lishi ularga siyosiy maydonda jamiyatga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilishga yordam bersa, ijtimoiy muammolarga sezgir shaxslarning mavjudligi ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantiradi.

**Keywords:** Management forms, neighborhood institution, organization methods, neighborhood mayor, neighborhood council, neighborhood social representative, selection process, cooperation, basic documents.

O'z faoliyatining qadimiyligi bilan qadimdan Vatanimizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan mahallaning nufuzi kundan kunga oshib takomillashib bormoqda. Zero, sobiq ittifoq davrida mahallaning mazmuni va vazifalari butunlay izdan chiqdi. Bu davirda mahalla o'zining huquqiy maqomini yoqotib, xukumron partiya kommunistik partiya tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashdan, shuningdek, mahalliy an'ana va urf-odoblari, odob-ahloq me'yorlarini tashviqot-targ'ibot qilish, shuningdek oilalardagi o'tkazilayotgan turli ko'rinishdagi marosimlar va boshqa tadbirlarni o'tkazishda ko'z quloq bo'lib turish kabi vazifani bajarib keldi. O'z o'rnida sobiq ittifoq davrida qadimdan ma'naviyat, ta'lim va tarbiya masalalarini hal etib kelgan mahallalarning o'rnini deyarli yo'qqa chiqarildi[1].

Mustaqillik davriga kelib o'zlarining qadimiy maqomiga erisha boshlagan mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti sifatidagi maqomini qonuniy jihatdan tikladi.

Fuqarolar yig'inlarini ayniqsa mahallalar faoliyatini ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan rivojlantirish, mahallalarda kamta'minlangan oilalar, boquchisini yoqatgan, hamda yolg'iz keksalarni ijtimoiy himoya qilishda mahallaning alohida o'rin tutishiga to'xtalib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir" deb nomlangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Jamiyatimizda siyosiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni qaror toptirishning muhim vositasi bo'lmish, hayotimizda qadimdan o'zini oqlab kelayotgan mahalla idorasi bu masalada alohida o'rin tutishi haqida gapirish ortiqcha.

Keng xalq ommasini davlat va hokimiyat idoralari bilan bamisoli ko'prikdek bog'lab turadigan bu noyob tizim mamlakatimizda ijtimoiy muhofaza siyosatini amalga oshirish yo'lida qo'shayotgan ulkan hissasi bilan xalqimiz nazarida katta obro' qozonayotgani bejiz emas"[2]. Darhaqiqat o'zining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-marifiy jihatidan rivojlanib tarbiya maskaniga aylanib borayotgan mahalla institutining mustaqillik yillaridagi mavqeyiga o'zining "Mustaqillik-erkin va farovon hayot" deb nomlangan kitobida to'xtalib o'tgan Muniraxon Qorieva shunday yozadi: "Mustaqillik yillarida mahalla tarixiy va rivojlangan mamlakatlardagi tushinchada aniq belgilangan ijtimoiy-demografik, madaniy-ma'naviy va hududiy-ma'muriy birlik sifatidagi maqomiga erishib, u o'z hududidagi fuqarolar o'rtasida an'ana va urf-odatlar birligi, insoniy, xo'jalik, huquqiy munosabatlar birligini tashkil etgani holda o'zaro ijtimoiy munosabatlarni bog'lab turish vositasiga aylandi".[3]

Darhaqiqat mustaqillik yillariga kelib, o'zining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-marifiy, iqtisodiy jihatdan o'zining Qonuniy mavqeyini qaytadan tiklayotgan mahalla instituti fuqarolik jamiyati qurishda asosiy institutga aylandi.

Bugun mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan biri – mahallaning o'ri beqiyosdir. Jumladan, mahalla – bu sharqona "demokratiya darsxonasi" xisoblanadi. Mustaqillik yillarida yurtimizda 10 mingdan ko'proq o'zini o'zi boshqarish organlari shakllangan bo'lsa, ulardan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi[4]. Mahalla mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi va ularning aksariyati o'zining qadimgi nomlarini va xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborlarini qaytadan tiklab oldi.

Binobarin, o'zbekistonda boshqaruv sohasidagi markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning ba'zi bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shaharmiqiyosiga o'tkazishda mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta e'tibor qaratildi. Buning natijasida, markaziy davlat hokimiyati o'z vakolatlarini borgan sari mahalliy davlat hokimiyati organlariga o'tkazib bormoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy soxalarda ko'plab islohotlar amalga oshirilib, ayniqsa ushbu islohotlarning asoslaridan bo'lgan fuqarolar yig'inlari faoliyatini yanada jonlantirish va yuksaltirishga e'tibor qaratildi. Fuqarolar yig'inlarining o'zini o'zi boshqarish organ sifatida faolligini oshirish borasidagi olib borilayotgan



islohotlarga o‘zining “Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi” deb nomlangan kitobida batafsil to‘xtalib o‘tgan siyosatshunos olim Muqimjon Qirg‘izboev, fuqarolar yig‘inlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga to‘xtalib quyidagicha talqin etadi: “XX asr oxirida boshlangan jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish maqsadidan kelib chiqib, mahalla fuqarolar yig‘inlariga yangi boshqaruv vakolatlari berildi. Mahalla o‘z hududida yashayotgan fuqarolarning turli ijtimoiy muammolarini hal qilib berishda bevosita ishtirok etib, u qariyalar, faxriylar, baynalmilal-harbiylar, kam ta‘minlangan va ko‘p bolali oilalar va har bir fuqaro manfaatlarini himoya qiladi, mahalla faollarini bu soxadagi faoliyatiga boshchilik qiladi.

Mahalla fuqarolar yig‘ini kengashi mavjud qonunchilikka binoan ijtimoiy ta‘minot organlari va boshqa homiy tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy yordam, kam ta‘minlangan oilalar va yolg‘iz kishilarga davlat va mahalla fuqarolar yig‘ini nomidan moddiy yordam ajratish ishining barcha tashkiliy jihatlarini amalga oshiradilar”. [5] Ushbu keltirilgan tarifdan ham shuni bilish mumkinki, jamiyatda yashovchi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-marifiy, jihatdan har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalashda, eng avvalo, o‘zini o‘zi boshqarish organlari ya‘ni mahallalarning har tomonlama nufuzini ko‘tarishga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Binobarin, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida bir talay ishlar amalga oshirilib, mustaqillik yillarida aholining ijtimoiy farovonligini ta‘minlash va sotsial sohani rivojlantirish masalalari faoliyatimizda hal qiluvchi o‘rin egalladi. Jumladan, aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida, yurtimizda yangi ish o‘rinlari tashkil etilib, bandlikni ta‘minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalariga doimi ravishda e‘tibor qaratib kelinmoqda.

Qishloqlarimizni obod qilish, qishloq aholisining turar-joy sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha bizning bunday tajribamiz xalqaro hamjamiyatda katta qiziqish uyg‘otmoqda.

O‘tgan yil aprel oyida Toshkent shahrida zamonaviy uy-joy qurilishi mavzusida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi (ASEAN), YuNESKO va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari, dunyoning 60 dan ziyod mamlakatidan 300 dan ortiq olim, mutaxassis va ekspertlar ishtirok etgani buning yorqin isbotidir [6].

Aholini ijtimoiy himoya qilish ishlari izchil davom etirilib, 2014 yilda 388 ta massivda umumiy maydoni 1 million 500 ming kvadrat metr bo‘lgan 11 mingta namunaviy uy-joy barpo etildi.

Zero, aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadidagi olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar faqatgina qishloqlarda zamonaviy uy – joy barpo etish bilan cheklanib qolmadi. Binobarin, bu borada Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi” deb nomlangan maruzasida mamlakatimizdagi hukumat va xokimliklar raxbarlari oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ydi; “Vazirlar Mahkamasi,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimlari e‘tiborini bir masalaga alohida qaratib aytmoqchiman: qishloqlarimiz aholisi nafaqat qulay uy-joylarda, ayni vaqtda barcha zarur muhandislik va transport kommunikatsiyalariga, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi ob‘ektlariga – tibbiyot, sport, bank, maishiy xizmat ko‘rsatish, savdo va madaniyat muassasalariga ega bo‘lgan obod posyolkalarda yashashi lozim.

Lo‘nda qilib aytganda, yangitdan barpo etilgan bunday posyolkadagi uy-joylarning sifat darajasi va yaratilgan maishiy qulayliklar shahardagi sharoitlardan aslo kam bo‘lmasligi kerak”[7].

Darhaqiqat mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilishda hamda ularga har tomonlama munosib sharoitga ega bo‘lgan turar joylarni qurishda ko‘plab ishlar amalga oshirilib, bunday zamonaviy uylar Andijon viloyatida ham o‘tgan keng ko‘lamda qurib kelinmoqda. Jumladan, ushbu qurilishlarni birgina Andijon viloyati Xo‘jaobod tumani misolida oladigan bo‘lsak, 2018 yil dasturiga asosan tumanda 3 ta masivda jami 50 ta namunaviy uy-joy qurilishi amalga oshirilmoqda.[8]

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz aholisining qariyb, 60 foizga yaqinini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishligini inobatga oladigan bo‘lsak, ushbu yoshlarni har tomonlama barkamol va sog‘lom etib tarbiyalash buguning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Binobarin, yoshlarni Vatan parvarlik ruhida tarbiyalashda eng avvalo, fuqarolar yig‘inlarida, mahallalarda milliy an‘ana va urf – odatlarni xurmat qilgan holda, ma‘naviy – ma‘rifiy, ijtimoiy – siyosiy sohalarida olib borilayotgan ishlarni yanada jonlantirish darkor. Jumladan, o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijtimoiy – siyosiy, ma‘naviy – marifiy jihatdan rivojlantirish orqali yoshlarni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash orqaliy sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga e‘tiborni qaratmoq kerak.

### List of used literature

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida” // lex.uz, 2016, 17 dekabr
2. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. 15 жилд.- Т.: “Ўзбекистон” 2007. – 125 бет
3. Қориева М. Мустақиллик-эркин ва фаровон ҳаёт. –Т.: Янги аср авлоди. 2013. -155 бет
4. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Т.: Ўзбекистон, 2010. 200-бет
5. Каримов И.А. Ўзбекистон эришган ютуқ ва марралар – биз танлаган ислохотлар йўлининг тасдиғидир. 22 – жилд – Т.: “Ўзбекистон” . 2014. – 205 бет

6. Ismoilov, Turobjon. "The events through physical activities for the pupils of primary classes." *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology* 2.10 (2020): 346-349.
7. Ismoilov, Turobjon. "The conducting recovery events through physical activities for the pupils of primary classes." *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology* 2.4 (2020): 444-447.

